

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN‘AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI” KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: “To‘garaklarida naqshlar bajarish ketma-ketligi”

Ilmiy rahbar:

Bajardi:

P.f.n. dotsent **O.Qodirov**

“Tasviriy san‘at va muhandislik
grafikasi” ta‘lim yo‘nalishi

Maxsus sirtqi

3-“B” kurs bitiruvchi talabasi

Umirov Sunnatullo

Suvonqulovich

Navoiy-2009-2010

_____ fakulteti _____
 Kafedra _____ yo'nalishi _____
 guruhi _____

“Tasdiqlayman”

Kafedra mudiri

_____ Kat. o'q. *Shodirov S.H.*

20__ yil “__” _____

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO' YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____
 (familiyasi, ismi, sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi: _____

“_____” _____ 20__ yil kafedra majlisida ma'qullangan.

2. Bitiruv ishni topshirish muddati _____

3. Bitiruv ishni bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar _____

1 _____

2 _____

3 _____

4. Xulosalash – tushintirish yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yhati)

5. Chizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

6. Bitiruv ishi bo' yicha maslahatchilar

№	Bo' lim mavzusi	Maslahatchi o' qituvchi f.i.sh.	Imzo	Sana
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv ishi bosqichlarinig novi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvchi o' tganlik belgisi

Bitiruv ishi rahbari:P.f.n.dotsent **O.Qodirov**

imzo

Topshiriqni bajarishga oldim:**Umirov Sunnatullo
Suvonqulovich**

imzo

Topshiriq berilgan sana “_____” _____ 20____yil

DAVLAT ATTESTASIYA KOMISSIYASINING RAISIGA

Navoiy davlat pedagogika insttuti Pedagogika fakulteti “Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” ta’lim yonalishi kunduzgi bo‘lim bitiruvchi kurs talabasi _____ ning

Mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuboriladi.

Bitiruv malakaviy ishiga rahbarining mulohazasi, kafedraning ishini himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, taqrizlar ilova qilinadi.

FAKULTET DEKANI: _____ **p.f.d. Abdullayeva SH.A.**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” kafedrasining bitiruv
malakaviy ish haqidagi

XULOSASI

Bitiruvchi kurs talabasi _____ ning

Mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kafedra yig‘ilishida muhokama qilingan va davlat attestasiya komissiyasiga himoya uchun tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri: _____ **katta o‘qituvchi Shovdiron S.A.**

MUNDARIJA**KIRISH:**

I-BOB. Amaliy san`atning, hozirgi kunda tutgan o`rni va ahamiyati..

1.1. Amaliy san`t tarixi haqida umumiy ma`lumot

1.2. Amaliy san`t turlari haqida umumiy ma`lumot.....

II-BOB. To`garaklarida naqshlar bajarish ketma-ketligi mavzusining tahlilyqismi.....

2.1. Naqqoshlik tarixi haqida ma`lumot.....

2.2. Naqsh atamaları hamda, naqshlarning ketma-ketlik texnologiyasi.....

Umumiy ulosa.....

Foydalanilgan abiyitlar.....

KIRISH.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yuksak umumiy madaniyatga, kasb-hunar ko'nikmalariga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy mushohada qilish hamda ijtimoiy hayotdagi muammolarning oqilona echimlarini topish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini odilona baholay oladigan kadrlar yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama barkamol, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda mukammal o'zlashtirgan, mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq mantiqiy mushohada qilish tamoyillariga asoslanmoqda. Ta'lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan. Shu jihatdan olganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida Tasviriy san'atni modernizatsiyalash o'zining ko'p qirrali maqsad-vazifasi bilan ajralib turadi va ta'lim tizimi oldiga bir qator aksiomatik vazifalarni ko'ndalang qilib quyadi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir" Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat suverenligini qo'lga kiritgan birinchi kunlaridanoq uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos "milliy modelni" hayotga tatbiq qilishga qaratildi. Jamiyatimizdagi fuqarolar tafakkurini yangilash, milliy o'zlikni

anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o`zlashtirish orqali, o`quvchilarning iste'dodlari, qobiliyatlarini tadqiq etish, estetik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish davlat umummilliy siyosati darajasidagi masalalardan biri sifatida belgilab berilishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug`aniyevich Karimovning **”Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari”** asarida, mamlakatimizda barqoror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida, amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o`zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o`sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo`jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqoror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo`lga kiritildi.

O`zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo`llarining aniq va to`g`ri ko`rsatib berilganligi ,bosh maqsad yo`lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo`lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o`zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy Iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o`z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko`rsatadi. Biroq, o`z o`rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, ma'lum ziddiyatli

jiatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik taxdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqoror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati - jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-Iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda, jahon miqyosidagi inqiroz oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olib, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, ushbu jarayonlarni pishiq hamda mukammal shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimizni taqozo etadi. Bu boradagi chora-tadbirlar Prezidentimiz I.A.Karimovning **«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ,O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari »** nomli asarlarida batafsil bayon qilib berilgan. Asarda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish tahlilari, kelib chiqish sabablari, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lish ommillar tahlil qilib berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz aholisi uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'lishiga qaramay, 2008- yilda foydali bitimlar va yutuqlar baholanib, respublikamizdagi iqtisodiy sohadagi yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari ko'proq amalga oshirish , O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon hamjamiyatida yuksak marra-larga chiqishning ishonchli yo'li sifatida, 2009- yilga mo'ljallagan iqtisodiy dasturning, quyidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlari bilgilab berilgan:

* Mamlakatimizda qabul qilingan, 2009-2012 yillarda Jahon iqtisodiy inqiroz oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha, qarshi dasturni amalga

oshirish, shu asosda iqtisodiy o'sishning barqoror sur'atlarini va iqtisodiyotning munosabatlarni rivojlanishini ta'minlash;

Tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni dinersifikatsiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Maqsad muhim tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish;

Qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlatirish hamda mulkdorlik tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rnini va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga, fermer xujaligini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlarini keng ko'lamda amalga oshirish;

Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishni muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy samaradorligini yanada rivojlantirish;

- Banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini, tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish.

Prezidentimizning ushbu asarlarida belgilab berilgan, O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish, eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab etishlarini taqozo etadi. Shungdek O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining tavsiyasiga ko'ra, Prezidentimiz I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarini talabalar tomonidan chuqur va har tomonlama o'rganish, unda ko'rsatib o'tilgan dolzarb masalalarning tub mohiyatini anglash, 2009- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim

yo`nalishlarini bilish maqsadida, mazkur maxsus kursning joriy etilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyatimizda yangi ish o`rinlariga zamin yaratilmoqda.

O`tgan yili AQSH ning ipoteka bozorida boshlangan, bugungi kunda ko`plab iqtisodiyot tarmoqlarining faoliyatiga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini to`g`ri baholash va shu asosda unga qarshi samarali chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish har doimgidek dilzarb masala hisoblanadi. Yutrboshimizning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” nomli kitobida ham Inqirozga qarshi choralar dasturi va uni amalga oshirish mexanizmlari aniq ko`rsatib berilgan edi.

Bugun mamlakatimizning “oltin sandig” deya ta`rif berilayotgan viloyatimizda Prezidentimizning 2008 yil 2-dekabrdagi Farmoni bilan “Navoiy” erkin industrial – iqtisodiy zona tashkil etilishi, kelajakda yangi ishlab chiqarish korxonalari sonining ortishiga va minglab muqim ish o`rinlari yaratilishiga zamin hozirlayotir.

Jahon tarixidan ma`lumki, birinchi erkin savdo zonasi, qadimiy Gretsiya davlatida tashkil etilgan. Madaniy ko`rinishdagi erkin iqtisodiy zona esa 1888 yilda Germaniyaning Gamburg shahar portida tashkil etilgan. Hozirda 135 davlatda 3000 ga yaqin bunday hudud mavjud bo`lib, ularda 68 million kishi ish bilan band hamda har yili qarib 500 milliard AQSH \$ miqdorida tovar aylanmasi mavjud.

Viloyatimizning sanoatlashgan darajasi, kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganligi, qadimiy “BUYUK IPAK YO`LI” ning kesishgan nuqtasida ekanligi ya`ni xalqaro E-40 avtomagistralining mavjudligi hamda xalqaro havo karidorining joylashgani tufayli hudud shu erda barpo etildi va hozirgi kunda 564 gr er devor bilan o`ralib kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta`minlandi.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir mu-nosobatlari esa 1996 yil 25 apreltda qabul qilingan, “Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risida” gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solingandi.

“NAVOIY”erkin industrial-iqtisodiy zonasida yaqin yillarda 100 ga yaqin xorij ishlab chiqarish korxona va fabrikalari qurilishi loyihalashtirilgan bo`lib, hozirgi kunda bir qator istiqbolli loyihalar bo`icha qurilish ishlari boshlanayotir.

2009 yilda “NAVOIY” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga 900 million AQSH \$ miqdorida 40 ga yaqin loyiha asosida xorijiy investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan.

Ayniqsa,2009 yilning 5-mart kuni Janubiy Koreyaning Seul shahrida yirik ishlab chiqarish korxonalari,kichik biznes va xususiy tadbirkorlar ishtirokida o`tkazilgan Prezintatsiyada 600 million AQSH \$ hajmidagi 30 ga yaqin istiqbolli loyiha shart-nomalari imzolangan edi.

O`zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov shaxsning ma`naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e`tibor berib: “Biron-bir jamiyat ma`naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma`naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o`z istiqbolini tasavvur eta olmaydi” deb alohida ta`kidlaydi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi:

Men o`z malakaviy bitiruv ishimda “To`garaklarida naqshlar bajarish ketma-ketligi” shu mavzuli naqqoshlik haqida umumiy ma`lumotlar berishni, naqqoshlik ishlarining usullarini bayon etishni va naqqoshlikka doir bir nechta ishlardan namunalar keltirishni o`z oldimga maqasad qilib qo`yaman.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

–bu naqqoshlik mavzusini o`rgatishda, maktab o`quvchilari uchun uning juda oddiy usullardan foydalanib bilim va ko`nikma berish.

– naqqoshlik mavzusini o`tishda innovatsion texnologiya usullaridan o`rinli foydalana olish orqali bilim berish

Malakaviy bitiruv ishituzilishi: kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 55 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:

–Maktab o`quvchilarining amaliy san`at darslarini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida “amaliy san`at” fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida amaliy san`at darslarida ganch o`makorligi darslarini o`tishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

Tadqiqot ishimizni yozishda qo`yidagi:

Analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, tasviriy san`atning zamonaviy metodlaridan unumli foydalana oldik.

I-BOB Amaliy san`atning, hozirgi kunda tutgan o`rni va ahamiyati

1.1. Amaliy san`t tarixi haqida umumiy ma`lumot

O`zbek xalqining ko`p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari bor va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O`zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemislligi va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo`lsak, o`zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishiing guvohi bo`lamiz.

O`lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo`lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo`lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg`otadi. Shakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u, o`z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o`rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo`ldi. O`zbekiston va umuman O`rta Osiyo xalqlarining bizgacha etib kelgan san'at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ko`p sonni tashkil etadi. Boshqa san'atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko`pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor.

Ma'lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir Tangriga xosdir. Insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, inchunin, bordiyu biror ishni yuqori

takomil darajasida ijro etish imkoni yo`qligi avvaldan ma'lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o`zi aqldan emasdur.

Boshqacha aytganda, hych bir tasvir unda ifodalangan mavjudot darajasiga ko`tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo`ladi.

Tasviriy san'atga bu qadar chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil O`zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo`lganki, hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi naqqoshlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshlaroshlik va Boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg`unlashgan mujassamligidan iboratdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Toshkent, qo`qon va Boshqa shaharlardagi me'morchilik va xalq amaliy bezak san'ati yodgorliklari o`tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san'at asarlarining namunalari bo`lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo`lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham O`zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy, axlohiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mavjud barcha san'at turlari o`z o`quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o`tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta'siri orqali bilim bepadi va tarbiyalaydi. Shu o`oknda amaliy bezak san'ati turlarining fazilatlarini juda ham o`ziga xos bulib, ularni Boshqa hych narsa bilan almashtirib bo`lmaydi. Ya'ni, bunday san'at asarlari ayni chog`da ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo`lgan.

1.2. Amaliy san`t turlari haqida umumiy ma`lumot

Yaqin o`tmishda o`zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yogh`och, tosh va suyak o`ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik,

zargarlik, kashtachilik, zardo`zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo`yrachilik kabi turlarining o`ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarida nom qozongan ustalarning xizmatlari unuta borilib, yo`qolib ketish xavfi ostida qolgan edi.

Bunday holat hozirgi kunda san'atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san'at havaskorlari oldiga amaliy bezak san'atini saqab qolish, ularni har tomonlama o`rganish va rivojlantirish, yosh avlodga san'at sir-asrorlarini o`rgatish orqali o`rinbosarlar tayyorlash san'at asarlarini keng targ`ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko`tarilishiga erishish vazifalarini qo`yadi.

Bu maqsadlar yo`lida olib boriladigan ishlar xalq ustalari, san'atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy ta'lim olishlari, san'atlarni egallashlarini tashkil etish va to`g`ri ilmiy-metodik yo`nalishda olib borish, san'atkor-pedagoglar tayyorlashni yo`lga qo`yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo`lishi kerak.

San'atkorlarni targ`ib qilish o`choqlari sifatida maktablar, klublar, madaniyat saroylari, uylari, pionerlar va o`quvchilar saroylarida tashkil etiladigan to`garaklar alohida ahamiyatga ega.

Mazkur kitobda masalaning shu jihatiga batafsil e'tibor qaratilgan. Muallif o`zining ko`p yillik ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga asoslangan holda xalq amaliy bezak san'atining kelgusi rivojini ta'minlash yo`llari va usullari haqida aniq tavsiyalar beradi va o`z xulosalarini bayon etadi.

Amaliy bezak san'atlarini o`rgatish mashg`ulotlarida xalq ustalari yaratgan asarlarining beqiyos ma'naviy qiymatlarini namoyish etish orqali yosh avlodda estetik didni shakllantirish, ularga zarur bilimlar va axloqiy tarbiya, berish, mehnat, ko`nikma va malakalarini rivojlantirish, kasb tanlashga ruhiy va amaliy tayyorlash vazifalari e'tiborda turadi.

O'zbek amaliy bezak san'ati turlarining ko'pligidan kelib chiqadigan o'ziga xos ta'lim va tarbiyaviy imkoniyatlarni diqqat bilan o'rganish juda qiziqarli natijalar beradi.

Birinchidan, yakka kishi hyech qachon amaliy bezak san'atining hamma turlarini to'liq o'zlashtira olmaydi. Lekin, umumiy darajada tanishish shaxsning yuqori madaniy darajaga erishuvida zarur shartdir. Bundan kelib chiqadiki, ushbu san'atlarni o'rgatish ikki xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: umumiy nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish yoki biror turini amaliy jihatdan to'liq egallash.

Ikkinchidan, har bir murabbiy — usta o'zi chuqur egallagan san'at turini shogirdlariga chuqur o'rgatish bilan cheklanishi mumkin.

Uchinchidan, har turli mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda ushbu san'atlarning u yoki bu turi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etishda tanlash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Lekin har qanday bilim va hunar o'rganishdan asosiy maqsad kelgusida amaliy, zarur vazifalarni hal etishga qaratilishi lozim.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar bajara-digan har turli topshiriqlar ularning botanika, biologiya, tarix, adabiyot va boshqa fan sohalaridagi bilimlaridan foydalanishni taqozo etadi, ya'ni bu mashg'ulotlarda predmetlararo bog'lanishni g'isobga olish zarur.

Bolalikda bo'lgan qiziqish bora-bora bir umrlik kasbga aylanish onlarining uchrashi bilan bizga, yoshlikda birorta san'at bilan qiziqib shug'ullangan bo'lib, lekin keyinchalik boshqa kasb egasi bo'lib ketish hollari ham ma'lum. Bunda har ikki holda ham san'at olamining kishi shaxsini takomillashtirishdagi vazifasi yetarlicha bajarilgan deb hisoblash mumkin. Chunki, har ikkala holda ham estetik did va madaniy darajaning zarur taraqqiyotiga erishiladi.

Xalq amaliy bezak san'ati an'analari tarixda avloddan-avlodga o'tib kelish bilan birga taraqqiyotning yangi sifatiga ega bo'lmoqda, bu jarayon, ayniqsa, hozirgi qayta qurish davrida yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

Ushbu qo'llanma hozirda Respublikamizdagi xalq amaliy san'at to'garaklarida san'at sirlarini o'rganayotgan o'quvchilarga hamda to'garak rahbarlariga zarur bo'lgan nazariy, amaliy, metodik va tarixiy materiallarni o'z ichiga olgan.

Kitobda Xalq amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishga hamda o'tkazishga bo'lgan zarur shart-sharoitlar, o'qitishning nazariy-metodik asoslari hamda dasturlar bayon etilgan, atamalarning izohli lug'ati berilgan.

Kitobda keltirilgan o'zbek amaliy bezak san'ati airim asarlarining tasvirlari ruznomalar, oynomalar, kitoblar hamda M. T. Oybek nomli O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanayotgan buyumlar va tasvirlar, O'zTAG fotoarxivi va boshqa manbalardan olindi.

Mazkur qo'llanmaning yozilishiga o'zining qimmatli maslahatlari bilan qatnashgan Sanobar Shodieva, Mahmud Usmonov, Vladimir Sergeevich Kuzin, Po'lat Zohidov, Anvar Ilhomov, Saidqosim Usmonov, O'tkir Tohirov, O'tkir Obidov va boshqalarga muallif o'z minnatdorchiligini izhor etadi.


Ushbu o'quv-metodik qo'llanmaning mazmunini yanada boyitish borasidagi ishlar bundan keyin ham davom ettirilishi tabiiy. Shuning uchun muallif kitobxonlardan ushbu kitob haqidagi o'z taklif va muloqazalarini yozib yuborishlarini so'raydi, bu, kelgusida kitobni qayta ishlashga katta yordam bo'lur edi.

II.Bob. To`garaklarida naqshlar bajarish ketma-ketligi mavzusining tahliliy qismi

2.1. Naqqoshlik tarixi haqida ma'lumot

O`rta Osiyo naqqoshlik san'ati qadimdan dunyoga mashhur. O`tmishda otabobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo`qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizni hayratga solib kelmoqda.

Milliy naqshlarimiz g`oyatda boy mazmunga ega. Oddiy – qoshiq, lagan, quticha, sandiq, belanchak, cholg`u asboblari, uy-ro`zg`or buyumlaridan tortib turar joy va jamoat binolarining devor hamda shiftlariga solingan naqshlar insonni hayratga soladi, uni o`ylantiradi. Bu go`zal naqshlar ajoyib naqqoshlar tomonidan yaratilgan bo`lib, asrlar davomida bunyod topdi, rivojlandi, me'morchilik hamda tasviriy san'at rivoji bilan bog`langan holda takomillashib bordi (1.-2.-3.-4.-5-rasmlar).



1-rasm. Xorazmlik naqqoshlar 1920 yil.



2-rasm

Naqsh — arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. qush, hayvon, o`simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado`zlikda, zardo`zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to`qish, to`qimachilik, inkurustatsiya, panjaralar va hokazolarda har xil yo`llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o`yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi. Naqqoshlik san'ati tari-

xi insoniyat madaniyati bilan bir qatorda qadimiydir. Madaniyatning rivojlanishi natijasida rassomlik va naqqoshlik ajralib chiqdi hamda rivojlandi. har xil arxeologik qazilmalar shuni ko'rsatadiki, naqqoshlik jahondagi barcha xalqlarda qadimdan mavjud ekanligi bizga ma'lum bo'ldi. Chunonchi, Xitoyda, qadimiy Eronda, Hindistonda va boshqa joylarda naqshning har xil turlarini ko'rish mumkin. Naqqoshlik har bir davlatning o'ziga xos muhitiga: geografik o'rniga, o'lkaning o'simlik dunyosiga ko'ra rivoj topdi. Masalan, arman va gruzinlarda uzum va uzum bargi, shimol xalqlarida archa va har xil g'ayvonlar, Qirg'iz va



Qozoqlarda mol shoxi, tojiklar va o'zbek xalqlarining naqshlariga qarasak anor, bodom, gullar, qalampir va boshqalarni ramziy naqsh tariqasida ishlatilganligini ko'rasiz. Evropada barokko, gotika, roman, klassitsizm uslublari har xil davrlarda hukmron bo'ldi. Bu esa o'z-o'zidan naqqoshlik san'atining rivojlanishiga ta'sir etdi.

O'zbekiston territoriyasidagi arxeologik qazilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I — II asr), Dalvarzintepa (1 asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumenttal naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI—VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko'rib hayron bo'ladi kishi. Ularning birini qarasangiz devorlarda bazmi jamshid, ov, rasmlar urishi, manzaralar hamda diniy rasmlar tasvirlangan. Jonli maxluqlar qizil va ko'k ranglar bilan bo'yab tasvirlangan. VII asrning oxiri VIII asrning boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib olishi natijasida qaror topgan islom dini o'zidan oldingi madaniyatning ildiziga bolta urdi. Yangi din hamda yangi qoya O'rta Osiyo tasviriy san'atiga ta'sirini o'tkazdi. Jonli mavjudotlarni aks etdirish man etildi.

Keyinchalik yuzaga kelgan diniy sharhlar va hodisalar ko'proq murosasiz yo'l tuta borib, qat'iy ravishda shunday der edi: «Tangri yoki odamzod suvratini chizishdan tiyiling, faqatgina daraxtlar, gullar va jonsiz mavjudotlarning rasmini soling, aks holda bu qoidani buzgan kishi gunohi azim qilgan bo'ladi», deb qo'rqitilgan. Jonli mavjudotlar suvratini chizish man etilishining ma'nosi shundaki, xudodan boshqa hyech kim biror narsa yaratish u yoqda tursin, hatto Xudo yaratgan narsani qayta gavdalandirishi ham mumkin emas va bu uning qo'lidan kelmaydi, aks holda musavvir Xudo bilan bas boylashib, uning irodasiga shak keltirgan bo'ladi». Islom talablariga bo'syunish oqibatida jonivorlar, parrandalar va odamlarni tasvirlash yo'qolib borib naqqoshlik rivoj topdi.

Arab yozuvi o'zlashtirildi. Natijada naqshlar bilan unvonli yozuv (epigrafika) uslubi paydo bo'ldi. Arab yozuvi naqshlar bilan birga chizildi. Arab yozuvi ham bezak, ham duo-afsunlar vazifasini bajardi. Xullas tasviriy san'at rivojlanmaydi. Buning hisobiga xalq amaliy bezak san'ati naqqoshlik hisobiga rivoj topdi. IX-X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitektura g'isht qalab naqsh solish yuk- sak darajada rivojlandi, binolarning

ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-afsunlar, tasbih va boshqalar naqadar mo'lligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layotgan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi, o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pyechak islamiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muhabbatini, bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no va xarakterga ega. Naqsh o'zbek madaniyatining hamma bosqichlarida hamroh bo'lib kelgan. Eng oddiy printsiplari bir-biriga mutanosiblik, uyg'unlik, yo'sin va usullarini ajoyib qayta-qayta takrorlashuvidir. Xalq naqqoshlari naqshlarning har bir detaliga alohida e'tibor berib, uning tabiiyligini yo'qotmaganlar, har bir element ustida puxta fikr yuritganlar. har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI-XII asrlarda O'zbekiston territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan.



3-rasm. Xayrobodjon masjidi, ustun (bolor) dagi naqshlar. Toshkent, XX asr oxiri.



Girih – forscha, chigal, tugun degan ma'noni beradi. Xandasiy nag'sh – to'rtburchak, uchburchak va boshg'a elementlardan tashkil topgan geometrik murakkab nag'sh turi (69, 70-rasmlar). Girih to'g'ri, egri va aralash chizig'larga bo'ysundirilgan bo'lib, o'ziga xos shartlilikka ega. Bu nag'sh turining keng

targʻalishi bezak san'atining rivojlanishiga yangidan-yangi imkoniyatlar ochib berdi.

Oʻzbek madaniyatining rivojlanishiga butun dunyoga mashgʻur olimlar – Abu Ali ibn Sino (Avitsenna), Beruniy, Firdavsiy va Roʻdakilar etishib chigʻdilar. Oʻsha vagʻtda butun dunyoga mashgʻur boʻlgan (YuNESKO mugʻofazasidagi) Somoniy magʻbarasi gʻurildi. U 11 27 yili me'mor Arslon Mugʻammadxon boshchiligida pishirilgan oddiy gʻishtni gʻar xil kombinatsiyalashtirib gʻurilgan. gʻishtlar yoz faslida eng toza ganch bilan terilib ishlangan.

Xalgʻ rivoyatlariga koʻra, me'mor bu minorani gʻurgan-u, koʻzdan gʻoyib boʻlgan. Imorat yaxshi choʻkib, oʻrnashib terilgan yaxlit toshga aylangandan keyin me'mor paydo boʻlib pardoiz ishlarini boshlagan.

«XIII asrda yuksak koʻtarilgan milliy madaniyatni mongol bosgʻinchilari izdan chigʻardi. 1219-1221 yillarda Buxoro, Samargʻand, Urganch, Balx, Marv bosib olinib tor-mor gʻilindi»□.

XIII asrda Chingizxon gʻukmronligida milliy san'at birmuncha izdan chigʻsada, lekin butkul yoʻgʻ gʻilinmadi. Temur va temuriylar davrida esa oʻzbek milliy xalgʻ amaliy san'ati yuksak darajada rivojlandi.

«XIV-XV asrlarda Oʻrta Osiyo xalgʻlari tarixida taragʻgʻiy etgan feodalizm igʻtisodiy-ijtimoiy formatsiyasi davrida feodal ishlab chigʻarishga asoslangan oʻziga xos bir igʻtisodiy-madaniy koʻtarinkilik roʻy berdi. Bu davrni biz gʻozir Alisher Navoiy, Abduragʻmon Jomiy, Kamoliddin Begʻzodga oʻxshash juda koʻp iste'dodli adiblar, olimlar, mutafakkirlar, san'atkorlar nomlari bilan bogʻligʻ boʻlgan Uygʻonish (Renessans) davri deb ataymiz.

XIV-XV asrlarda Samargʻandda tez sur'atlar bilan turli-tuman inshootlar gʻurila boshlagan. Bu gʻurilishlarda gʻindiston, Eron, Irogʻ, Zakavkaze, xullas Amir Temur gʻukmronligi ostida boʻlgan barcha oʻlkalardan kelgan me'morlar, gʻunarmandlar, ustalar, san'atkorlarni koʻrish mumkin edi. Ular oʻzlari bunyod etayotgan inshootlarga butun bilimlari, gʻunarleri va san'atkorona magʻoratlarini baxsh etganlar. Oʻsha davrda Samargʻand va Movarounnagʻrning boshgʻa joylarida bunyod etilgan juda koʻp gʻashamatli tarixiy-madaniy obidalarda Oʻrta

Osiyo xalg`laridan tashg`ari butun yag`in va O`rta Sharg` xalg`larining o`ziga xos boy, sermazmun badiiy-estetik merosining sintezi g`orishib, uyg`unlashib ketgan edi, desak mubolag`a bo`lmasa kerak».

Temuriylar xonligida g`unarmandchilik yuksak darajada rivojlandi. U bosib olgan erlardagi g`amma ustalarni Samarg`andga yig`di».


U tikuvchi, toshtarosh, zargar, kulol, nag`g`osh va boshg`a ustalarni olib kelib ishlatgan. Shu san'at turlari g`atori nag`g`oshlik g`am tez rivojlana boshladi. Temur g`ukmronligi ostida juda ko`p bino, machit, madrasa va boshg`alar g`ad ko`tardi. Undagi bezaklar yanada badiiylashtirildi. Shag`arlar atrofi bog`u bo`stonga aylantirildi. Xullas u o`zbek milliy madaniyatini rivojlantirishda katta g`issa g`o`shdi. Ayniqsa tasviriy san'at g`aytadan tiklanib, tez orada rivojlanib ketdi. Devorlarda osmon, sobit sayyoralar, tog`lar, dengizlar, sag`rolar, odamlar, g`ayvonlar va boshg`alar aks ettirildi. O`sha davrda tasviriy san'atning asosiy vazifasi g`ukmdorlarning kuch-g`udratini, g`arbiy shavkatini ulug`lashdan iborat edi.


Afsuski ko`pgina urushlar og`ibatida g`ozirgacha g`asrlardagi, turar joylardagi va jamoat binolaridagi tabiat rasmlari bizgacha etib kelmagan. Ayrim qoldiqlargina saqlanib g`olgan. Ayniqsa oppoq ganch ustidan chizilgan gullar, manzaralar, qushlar tasviri nihoyatda nafis ifodalangan. «Tabiat manzaralari musavvir tomonidan shu g`adar ustalik va chag`g`onlik bilan ado etilganki, uning qo`li bamisoli qush parvozidan erkin g`arakat qilgan, shoir tili bilan aytganda, tutgan mo`yg`alami musavvirning o`z barmog`lariday aniq harakat qilgan, usta bilan qil o`tmas do`st mo`yqalam go`yo uning amriga mahtalday»

XIV-XV asrlarda koshinkorlik rivojlandi, qurilgan binolarni koshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi. Koshin va parchinlardan ajoyib naqshlar qosil qilishga erishildi. Chunonchi, Samarqanddagi Shoqi-Zinda kompleksi, Ashratxona, Oq saroy, Ko`qna Urganchdagi To`rabekxonim maqbarasi va boshqalardir. XV asrda naqqoshlik san'ati yanada rivojlandi. Natijada naqqoshlikda kundal texnikasi paydo bo`lib rivoj topdi. Samarqandda Ashratxona, Oqsaroy maqbaralari va boshqa arxitektura yodgorliklarining ichki qismini kundal usulida bezaldi.


Kundal – arxitekturada devorga bo`rtib ishlangan bezak texnikasi. Me'morchilikda keng tarqalgan. Mo`yqalam bilan devorga surtilgan qizil kesak bo`rtma shakl oladi, ustidan bo`yoq va zarqal beriladi. Zamin zarqalga, asosiy bo`rtma naqsh elementlari turli-tuman ranglarga bo`yaladi yoki aksincha, bo`rtma naqsh zarqalga, zamin esa turli rangga bo`yaladi. XV asrdan boshlab Samarqanddagi Ashratxona maqbarasi, Buxorodagi Amir maqbarasi, Baland machitida jozibador namunalar saqlangan. O`rta yerda kundal texnikasidagi bezaklar keng tarqalgan.

XVI-XVII asrga kelib syujetli rasmlar deyarli chizilmay, balki kundal usulida naqshlar bilan bezash rivoj topdi. Kundal usulida Buxorodagi Xo`ja Zayniddin xonaqosi (XVI asr), Baland machit (XVI asr), Abdulazizxon madrasasi (XVI), Samarqanddagi Tillakori madrasasi (XVII asr) va boshqalar bezaldi. Bu arxitektura binolarida bezalgan naqshlar o`zining badiiyligi, qarakatchanligi, o`ziga xos originalligi bilan kishini qayratga soladi. Naqshlarning qar biri bir katta asar bo`lib voqelikni naqqosh tili bilan kuylayotgandek tuyuladi. Lekin XVII asrning oxiriga kelib, bir nyecha joyda takrorlanadigan naqshlar va mavzularning bir xilligi, tillaning qaddan tashqari sarf etilganligi ko`zga tashlandi. Ayniqsa bu soqada ijodiy izlanishlar kam bo`lganligi sezildi.






69-rasm. 8-4 raxli grih.



XVI-XVIII asrlar orasida oʻzaro ichki urushlar va nizolar madaniyatning rivojlanishiga salbiy taʼsir etdi. Bu esa milliy naqqoshchilik sanʼatining rivojla-

nishiga qam ta'sir etdi. Buxoro, Xiva, qo'qon xonliklari vujudga kelishi bilan san'atkorlar bu shaqarlarga yiqila boshladi. Shu vaqtdan naqqoshlik xalq amaliy san'at turlari kabi gullab yashnay boshladi. Xivadagi Tosh qovli, qo'qondagi Xudoyorxon o'rdasi Buxorodagi Sitorai Moqi-xosa singari yirik binolar ajoyib naqshlar bilan bezatildi. qajmli – planli naqsh kompozitsiyalar paydo bo'ldi. Bu bezaklar nihoyatda nafisligi bilan ajralib turar edi. Naqsh san'atining rang-barang rivojlanishi, qar bir shaqar va voqaning o'ziga yarasha naqqoshlik maktabi paydo bo'ldi. Chunonchi Farqona, Toshkent, Xorazm, Samarqand va boshqalar. Ular o'zining kompozitsiyalari, rangi jiqatidan va boshqa tomonlari bilan farqlanadi.

XIX va XX asr boshlarida turar joy binolari, maqalla machitlari, saroy va o'quv yurtlari binolari, choyxonalarning devor va shiftlari jimjimador naqshlar bilan bezatildi. Ayniqsa devorlar sirtiga daraxtlar, guldastalar, guldonli guldastalar, gulli butoqlar jonli chiziqlar bilan bezatildi. Chunonchi quvadagi Zayniddin boyning uyi, Toshkentdagi knyaz N.K. Romanovlar saroyi, A.A. Polovtsevning uyi, Marqilondagi Saidaqmadxo`ja madrasasi va boshqalar (71-rasm).



70-rasm. Aylanadan tashkil ropgan grih.



71-rasm Toshkentdagi xalq amaliy san`ati muzeyining ayvon peshtoqisiga ishlangan naqshlar.

2.2. Naqsh atamalari hamda, naqshlarning ketma-ketlik texnologiyasi

Har bir naqshning o`z nomi va mazmuni bo`ladi. Shunday ekan, naqshlar naqshlanadigan buyumning shakli hamda qanday maqsadda ishlatilishiga qarab tanlanadi va o`ziga xos nomlanadi. Masalan, turunj, islimi, madohili, hoshiya, yak raftor, lo`la hoshiya, bandi rumiy, islimiy guldona, islimiy madohil, xashti tufsor, sarniqon, tufsoori qanot, turna qanot, xonagi bo`rtma, xashti davra, chorsar, davri

sitora, shashdona, parrak, oftoba, patnis islimi, lola islimiy, bofta islimiy, islimi shukufta, shashdona, yelpiqich zanjira, yakka zanjira, gajak islimiy, parrak, oftoba, erkin islimiy, bodom islimiy, bodom guli, aylanma islimi, bargli islimi, bargli raftor, mehrob islimi, gulli aylanma islimiy, gulli raftor islimiy, patnis gulli islimiy, 5 rahli girih, 5-10 raxli girih, 3-5 raxli girih, 5-10-16 raxli girih, gulli girih, shohbarg, islimi, qo`sh bargli islimi, munabbati girih, munabbati gul, ruta, anorgul, morpyech va boshqalar. O`simliksimon, geometrik, ramziy naqshlarga kiradi.

Gul-naqsh so`zi o`rnida ham ishlatiladi. Gul so`ziga naqshning nomi ham qo`shib aytiladi, chunonchi guliraftor, davra gul, islimiy gul, guli yakraftor, guli seraftor, gulsun va boshqalar bo`lib, ularning 200 ga yaqin turi bor. Amaliy san'atning barcha turlarida uchraydi. Oltin, yoqoch, mis, kumushga o`yib chizib yoki qabartib ishlanadi, badiiy buyumlarda o`yma, kashta tarzida tayyorlanadi, zardo`zlik buyumlariga va kiyimlarga zar bilan tikiladi. O`zbekistonning milliy gullari mazmundorligi va rang-barangligi bilan ajralib turadi.

Morpyech – (tojikcha mor-ilon, pyech-o`ralgan) ilon izi shaklidan iborat bo`lgan islimiy hoshiya naqsh. Morpyech misgarlikda mis idishlarning chetiga va ichiga, ganchkorlikda esa tokcha, namoyon, izora chetlariga hamda yoqoch o`ymakorligida esa eshik, namoyon, stol, stul va boshqa narsalarning chetiga ishlanadi. Morpyechni ba'zi ustalar «ilon izi» deb ham yuritadilar.

Ruta – (ruscha – bordyur) ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh. Chizilayotgan naqsh nusxasining xarakteriga qarab ketma-ket, to`nkarma usullarda ulanishi mumkin. Naqqosh to`nkarma usulda takrorlanuvchi ruta chizayotganda taqsim asosini qoqozga (ikkiga buklab) chizadi, axta aylantirib, undan foydalanadi. To`nkarma ruta kompozitsiyada bir yoki ikki, ba'zan uch chiqish nuqtasi (odatda o`rtada bo`ladi) bo`sh joylarni to`latishga xizmat qiladi. Ketma-ket ulanuvchi rutalar bir, ikki, uch yo`nalishli bo`lishi mumkin, har yo`nalishda bittadan chiqish nuqtasi bo`ladi. Ikki chiqish nuqtali rutalar (aylantirma nusxa) deb ataladigan kompozitsiya ham uchraydi. Taqsim chegaralaridagi ikki chiqish nuqtasidan chiquvchi novdalar soat yo`nalishiga

o`xshatib, ikki nuqtani bosib o`tadi (ya'ni ikki nuqtadan chiqqan novdalar halqa hosil qiladi). To`ldiruvchi elementlar ham novdalarning o`rtasiga moslab chiziladi.

Islimi duraftor – ikki yo`nalishli ruta islimi (nabotiy) hoshiya naqsh. Islimi duraftor barg, kurtak, gul va boshqa elementlardan tashkil topgan bo`ladi, bir-biriga uzluksiz ulanib, o`ralib ketadigan islimi naqshlarni takrorlanishidan hosil bo`ladi. Islimi duraftor yoqoch, tosh, kumush, oltin, devorga, matoga va boshqa narsalarga o`yib, tikib, chizib, bo`yab ishlanadi. Islimi duraftor xalq amaliy san'atining barcha turlarida keng tarqalgan. Uning tuzilishiga o`xshash lekin ularning yo`nalishlar soniga qarab yakraftor islimi (bir yo`nalishli), seraftor (uch yo`nalishli) islimi va chorraftor (to`rt yo`nalishli) islimi deb yuritiladi. Islimi duraftorni bir tomonga va har ikkala tomonga ulanadigan xillari bor. Islimi duraftorning mehrobli duraftor islimi (mehrob shaklidan tuzilgan ikki yo`nalishli ruta islimi naqsh), gul islimi madoxili duraftor (madoxili shaklidan tashkil topgan ikki yo`nalishli islimi naqsh turi) va boshqa turlari bor.

Namoyon — forscha so`z bo`lib, ko`rinish, manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukammallashgan etuk naqsh kompozitsiyasi (86-rasm). Namoyon voqe'likning umumlashgan tasviriy obrazini o`zida aks etadi. Masalan, chamanzor, boqu-bo`stonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni shartli aks ettiradi. Hoshiya naqsh namoyonning badiiy qilib ko`rsatishda muhim rol o`ynaydi. Namoyon hyech yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir. Namoyon murakkab naqsh turiga kirib uning o`simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlari mavjud. Namoyon naqsh kompozitsiyalar o`ziga xos tomonlarga ega. Usta namoyonni ishlashda uning uzoqdan va yaqindan ko`rinishini alohida hisobga oladi. Namoyon o`simliksimon naqshdan iborat bo`lsa, unda naqshning band va tanoblarini darajalarga bo`lib chiqadi. Gulli girihli namoyonda esa girih asosiy, o`simliksimon naqsh esa to`ldiruvchi rolini o`ynaydi.

Namoyon faqat girihdan tashkil topgan bo`lsa undan ham asosiy va to`ldiruvchi girihlarga bo`lish mumkin, ya'ni yirik girihlarni ichiga mayda girihlar chiziladi. Namoyonlar simmetrik va assimetrik tuzilgan bo`ladi.

XIX asrning o`rtalarida har bir vohaning namoyonlarini kuzatsak o`ziga xos bo`lib, ular bir-biridan farq qiladi. Ya'ni naqshning xarakteri ornament uslubiga ega. Masalan, Xiva naqqoshligidagi namoyonlardan bandlar bir-biri bilan spiralsimon holda ulanib ketadi. Barg gullar kam ishlatiladi. Ularning kompozitsiyasi dinamik xarakterga ega. Toshkent ustalarining namoyon kompozitsiyalari o`ziga xos xususiyatga o`simlik gullarining ko`pligidir. Farqona naqsh kompozitsiyasida tabiatdagi gullar, barglar, mevalar (lola gul, atirgul, bodomgul, majnun tol, anor va boshqalar) to`qridan-to`qri tasvirlanadi. Namoyonning majnuntol namoyon, chorsi namoyon, shabaki seraftor, mehrobli namoyon va boshqa atamalari bor.

Madoxil — (arab.— oston, kirish, eshik) yechimi to`qrisidagi ma'lumotlar berilmagan. U o`zining kitobida kvadratni uchga, beshga bo`lishning eng sodda oson yo`llarini keltiradiki, bu o`sha davr uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga molik edi. Murakkabligidanmi yoki yasash qonun-qoidalarining asta-sekin unutib ketganligidanmi, xullas biz uchun noma'lum.

XVII asrga kelib, girih san'ati juda kam ishlatiladigan bo`ldi. Girih chizadigan ustalar nihoyatda kam qolgan. Girix, chizish murakkab bo`lgani uchun hamma ustalar chiza olmaganlar. O`sha davrlarda girih naqshini yaxshi bilgan ustalar etuk ustalar bo`lib hisoblanganlar. Shunday ustalardan biri Usta Shirin Murodov bo`lgan. U yangi girihlarni osonlik bilan chiza olgan hamda o`z o`rnida ustalik bilan qo`llay olgan. U o`z davrida girihni piri hisoblangan, uni girihkor usta deb hisoblaganlar. Shuning uchun girih chiza olmagan ustalarni etuk usta deyilmagan.



86-rasm. Munabbat islamiy kompozitsiya.

20- yillardan keyin olimlar juda ko`p izlanishlar, ilmiy maqolalar va asarlar yozdilar. Bunday olimlardan B. N. Zasipkin, N. B. Baklanov, G. I. Gogonov, S.

Polupanov. Ular arxitektura yodgorliklaridagi girih namunalarini to'plagan va ularning yechimlarini tahlil qilib ilmiy izlanishlar olib borganlar. San'atshunos olimlar, fan doktori, professorlar, L. Rempel «Panjara», «Arxitekturo'y ornament Uzbekistana», M. Bulatovning «Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX—XV vekov» kabi asarlarida girih haqida batafsil yozib o'tganlar.

Hozirgi vaqtda girihchor ustalarimizdan biri 3. Bositxonovdir. 300 ga yaqin ishlagan yangi girih naqshlari bilan jumhuriyatimizda mushhurdir. Hozirda har bir binoni bezashda geometrik naqshlar qo'llab kelmoqdalar. Albatta bu bezatilgan girihlar to'qri qo'llanilgan deya olmaymiz. Har bir odam o'z xarakteri va ko'rinishiga ega bo'lganday, har bir girih o'ziga xos xarakter va yechimga ega. Shu tomonlarini bilmagan ustalar, yosh bezatuvchilar ko'pgina kamchiliklarga yo'l qo'ymoqdalar. Ular tayyor girihlarni ba'zi kitob arxitektura yodgorliklaridan noto'qri ko'chirib, tushunmay yoki to'qri ko'chirib olsada, o'z o'rnida qo'llay olmayptilar. Girih naqshining o'z qonun-qoidolari bor.

Shuning uchun ham biz ularga girih naqsh yasash geometriyasini qonun-qoidalarini chuqur o'rgatmoqimiz lozim. Avvalgi ustalarimiz har xil qabariq sirtlarga girih naqshini qanday moslab ishlagani eng muhimi qanday metodlarda tuzilganligi bizgacha noma'lum. Buning sababi girih chizish metodikasi bo'yicha maxsus albomlar va kitoblarning yo'qligidir. Hattoki girih chizish metodikasiga oid maqolalar yo'q. Shuning uchun ham maktabdagi xalq amaliy san'ati to'garaklarida, maxsus bilim yurtlarida va oliy o'quv yurtlarida deyarli girih chizish qonun-qoidolari yaxshi o'rgatilmayapti. Shu singari me'morlar xalq amaliy san'ati ustalari va o'qutuvchilar, to'garak rahbarlari ham girih chizish geometriyasini chuqur o'rganishda ma'lum qiyinchiliklarga uchramoqdalar. Shuning uchun biz sizlar bilan yangi girihlarni hosil qilishning ba'zi yo'llari haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Girih o'simliksimon naqshlardan farq qiladi. O'simliksimon naqshlar tabiatdan barg, gul, novda va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklidir. Geometrik naqsh esa tabiatdagi barg, gul va boshqa narsalarni umumiy shakli olinib geometrik shaklga keltirilganligidir.

Gaplar soʻzlardan, soʻzlar esa harflardan tashkil topganday girihlar ham oʻz elementlaridan tashkil topadi.

Geometrik naqsh elementlari toʻrt qismdan uchburchaklar, toʻrtburchaklar, koʻpburchaklar va egri chiziqlardan tashkil topadi (90-rasm). Shu girih elementlari yordamida minglab naqshlar yasash mumkin. Girih ham naqsh turlari singari taqsim deb ataladigan juda oddiy elementdan tashkil topadi. Shu taqsimlarning takrorlanishidan tugal naqsh kompozitsiyasi hosil qilinadi. Geometrik naqsh kompozitsiyalarini tuzishning oʻziga xos turli sirlari mavjud boʻlib, siz bilan girih naqsh tuzishning baʼzi bir tomonlarini oʻrtoqlashmoqchimiz. Yangi girih kompozitsiyalari tuzishning quyidagi sir-asrorlarini sanab oʻtmoqchimiz.

1. Girih elementlarini kombichatsiyalash asosida naqsh kompozitsiyasi hosil qilish:

- a) toʻrtburchaklar kombinatsiyasi asosida (91, 92-rasmlar);
- b) uchburchaklarning kombinatsiyasi asosida (93, 94-rasmlar),
- v) muntazam koʻpburchaklarning kombinatsiyasi asosida,
- g) egri chiziqlar kombinatsiyasi asosida.

2. Girih elementlarini baʼzi tomonlarini davom ettirish bilan.

3. Kompozitsiyaga baʼzi elementlarni qoʻshish bilan.

4. Kompozitsiyadagi naqsh elementlarining baʼzi tomonlarini oʻzgartirish bilan.

5. Ikki xil girih elementlarini biriktirib.

6. Baʼzi girih kompozitsiyasidagi ayrim boʻlaklarni olib tashlash natijasida.

7. Girit kompozitsiyalarini bir nyecha mustaqil kompozitsiyalarga ajratish.

8. Turli toʻr chiziqlar yordamida har xil kompozitsiyalar tuzish va hokazolar (95-rasm).

Girih maʼlum mazmunga va xarakterga ega boʻladi. Tabiatda har bir oʻsimlikning nomi boʻlganidek girihlarning ham oʻziga xos nomlari bilan yuritiladi. Agar girih 5 qirrali yulduzdan iborat boʻlsa, besh raxli girih deb yuritiladi. Xuddi shunday shu shaklning qirralari soniga qarab nomlanadi. Girih 5 va 6 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat boʻlsa, uni besh-olti raxli girih deb

ataladi. Agar 6 va 10 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat bo'lsa, oltiyu-o'n raxli girih deb nomlanadi. Agar 5,8 va 12 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat bo'lsa, besh-sakkiz-o'n ikki raxli girihlar deb nomlanadi va hokazo (96, 97, 98, 99, 100-rasmlar).

Hozir jumhuriyatimizda talantli qo'li gul xalq amaliy san'ati ustalari Mahmud Usmonov, Zokir Bositxonov, Anvar Ilhomov, Komiljon Karimov, Umar Tohirov, Ziyovuddin Yusupov, Hayotilla Abdullaev va boshqalar zamonaviy muhtasham binolarni bezatishda qo'llagan girihlari o'zining soddaligi va go'zalligi, original va mukammalligi bilan ajralib turadi. Hozirgi zamonaviy binolarda girihning bunday namunalarini Go'zal kafesi, Guliston restorani, O'zbekiston komsomoli Markaziy Komiteti binosida, tsirk binosida, tarix muzeyida, O'zbekiston meqmonxonasida va boshqa joylarda ko'rish mumkin. Bu naqshu-nigoralar binolarga ko'rkamlik baxshida etib turibdi. Ha, jahonga mashhur Firdavsiy, Abu Ali Ibn Sino, Al Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Bobir kabi olim hamda shoirlar binolarning go'zal bo'lishiga, kishilar hayolini tortuvchi naqshu-nigoralar bilan bezatilishini, ular tabiatning go'zal manzaralariga monand yaratilishini tarqib etganliklari bejiz emas albatta.

**Mo`yqalam** — qilqalam, naqqoshlikda, rassomchilikda qoqoz, ganch, yoqoch, karton va boshqalarga bo`yoq bilan rasm solish, bo`yashda ishlatiladigan asbob. Mo`yqalam hayvonlar junidan va har xil plastinkalardan tayyorlanadi. Mo`yqalamlar ko`rinishiga qarab yalpoq, ya'ni kurakcha ko`rinishdagi mo`yqalamlar, uchi ingichkalashib boradigan dumaloq mo`yqalamlar bo`ladi. Dumaloq mo`yqalamlarni uchi ingichka bo`lib borishi tasvirdagi mayda nozik joylarni ishlashga qulaylik tuqdiradi. Bo`rsiq, suvsar, olmaxon kabilarning junidan tayyorlangan mayin mo`yqalamlar akvarel, tempera hamda grafika, rang tasviri ishlarida ishlatiladi. Akvarel uchun qoqoz yuzasini buzmaydigan yumshoq mo`yqalamdan foydalaniladi. Biroz qattiqroq mo`yqalamda guash va tempera bo`yoqdagi tasvirlar uchun ishlatiladi. Qattiqroq jundan tayyorlangan mo`yqalamlarni moybo`yoq mo`yqalamlar deyiladi.

Ular rassomchilikda, naqqoshlikda va bo`yoqchilikda qo`llaniladi. Uzun qilli mo`yqalamlar esa freska hamda teatr dekaratsiyalarini tayyorlashda ishlatiladi. Qadimgi ustalar mo`yqalamlarni o`zlari tayyorlaganlar yoki maxsus mo`yqalam tayyorlaydigan ustalarga buyurtma berganlar.

Akvarel va guash uchun tayyorlangan mo`yqalamlarni ishga yaroqli yoki yaroqsizligini bilish uchun mo`yqalamni suvga botiriladi va suvdan olib silkitilsa shunda uchlari to`planib qolsa bu mo`yqalam ishga yaroqli, aksincha tuklari to`zib tursa ishga yaroqsiz hisoblanadi. Ayrim naqqoshlar ikki tomonida ham mo`yi bo`lgan mo`yqalamlardan foydalanadilar. Ya'ni bir tomonida katta, ikkinchi tomoniga kichikroq mo`yi bo`ladi. Mo`yqalamlar ishlatilib bo`lingandan so`ng kirsovunda ehtiyotlik bilan yuvilib, keyin latta bilan siqilgandan so`ng stolni chetiga yoki maxsus tirgakka solib qo`yiladi.

Akvarel mo`yqalamini ishlatishda va uni saqlashda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

1. Mo`yqalamni suvda qoldirmaslik.
2. Mo`yqalamni bo`yoq bilan qotib qolishiga yo`l qo`ymaslik.
3. Ho`l hoida mo`yqalamni saqlash mumkin emas.
4. Mo`yqalamni changdan, yoqli narsalardan saqlash.

5. Mo'yqalamning mo'y qismining uchini qiyshiq va tarqoq bo'lib qolishiga yo'l qo'ymaslik, chunki keyin to'qrilash juda qiyin.

6. Akvarel ishlashda moyli moybo'yoq mo'yqalamini qo'llamaslik.

7. Mo'yqalamni quruq joyda, uchi qoqozda o'ralgan holda maxsus qalamdonda saqlash kerak.

Gul qalam — yumshoq mo'yqalam turi bo'lib, naqshlarni bo'yash va pardozlash uchun ishlatiladigan mo'yqalamdir. Gul qalamlar bo'rsiq, olmaxon, suvsar kabi hayvonlarni yungidan tayyorlanadi. Ularni ishlatish joyiga qarab uch turga, mola qalam, obi qalam va siyoh qalamlarga bo'linadi. Mola qalamlar 9,10 nomerli mo'yqalamlardir. Naqshlarning katta va kichik zaminlarini (yuzalarini) bo'yashda ishlatiladi. Obi qalam 6—7 nomerli mo'yqalamlardir. Naqshlarni juda kichik yuzalarini bo'yashda va kompozitsiyaning chetki chiziqlarini, ya'ni ramkalarini chizishda ishlatiladi. Siyoh qalam esa 1,2 nomerli mo'yqalamlar bo'lib, axta yordamida tushurilgan naqsh izlarining o'chib ketmaslik maqsadida bo'yoqda chizib chiqish, gul va barglarga tarqil berish hamda oq bandlarni tortishda ishlatiladi.

Chakma qalam — obi tortilgan joylariga chakma qo'yish uchun ishlatiladigan maxsus qalamga o'xshash tayoqcha. Uning uch qismining diametri 1 mm bo'ladi. Chakmalarni bo'yaydigan mo'yqalamlar suvsarning mo'yidan yasaladi. Bu mo'yqalamlar bilan ingichka va yo'qon chiziqlar chizish mumkin, unda siyoh qalam va tarqil qilish juda qulay. Oddiy qalam yo'qonligidek cho'pning bir tomoni yoki ikkinchi tomonini uch qismini yo'nib, diametri 1 mm li uchlik tayyorlanadi.

Belcha — (shpatel) buyum yoki boshqa narsalar yuzasini maxsus qorishma surtib tekislash (silliqlash)da ishlatiladi. Asosan uch xil: katta, o'rtacha va kichik belchalar bo'ladi. Katta belchaning uch tomoni kengligi 15—20, o'rtacha belchaniki 8—10, kichik belchaniki 3—4 sm bo'ladi. Ular yuzani katta-kichikligiga qarab ishlatiladi.

Guash — italyancha suv bo'yoqi degani. U suvli uncha tiniq bo'lmagan bo'yoq. Guash shirach va belila aralashtirib hamda suvga qorilgan bo'yoq bo'lib,

akvarelga bo'yoqlarning yumshoq xillariga o'xshasada, belila qo'shilganligi, bo'yoq qatlamlar hamda xiraligi bilan farq qiladi. Guash bo'yoqlari plastmassa, shisha bankalarda, tyubiklarda ishlab chiqariladi. Guash bo'yoqi quyuq qaymoqqa o'xshaydi. U qurib qolmasligi uchun ustiga glitserin, suv, kuchsiz olcha shirach va boshqalar quyiladi. Guash bo'yoqida ishlashning o'ziga xos qulayliklari bor. Mo'yqalamda oson olinishi, quriganda uqalanib ketmasligi, surkalib ketmasligi, tag qismidagi bo'yoq qavati bir tekisda to'la berkitilgan bo'lishi kerak. Guash bo'yoqining tarkibiy boqlovchisi dekstrin, glitserin hisoblanadi. Guash bo'yoqini tayyorlashda bo'yoq kukunlaridan foydalanib tayyorlanadi. Guash bo'yoqida akvarel mo'yqalamlari va uning mo'ynasidan biroz qattiqroq mo'yqalamlar hamda moy bo'yoqlari uchun chiqarilgan mo'yqalamlardan ham foydalanadi. Maxsus rassomchilik va badiiy ishlarda alohida emulsiyalardan tayyorlangan guash bo'yoqlar ishlatiladi. Bu bo'yoqlar rangining chiroyli va tiniq-ligi bilan farqlanadi. Fluorestsentsiyali guash bo'yoqlar ham bor. U olti xil rangda bo'lib, polietilen idishchalarga solingan bo'ladi. Bu guash turini akvarel va temperalar bilan ham aralashtirib ishlatlsa bo'ladi. Fluorestsentsiyali guash nihoyatda tiniq va yorqin bo'ladi. Umuman guash bo'yoqidan rasmlar, naqshlar, har xil gazeta, plakatlar, shiorlar yozishda va boshqalarda ishlatiladi. Siqma akvarel bo'yoqi (Neva)ni oq guashga qo'shib ishlatiladi, akvarel va uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Akvarel — lotincha so'z bo'lib, suvda eriydigan va osongina yuviladigan elimli bo'yoq. Bu bo'yoqda ishlangan naqshlar va rasmlarning asosiy xususiyati bo'yoqlarning tiniq hamda shaffofligi, rasm zaminining ranggi aniq sezilib turadi. Akvarel qattiq, yumshoq va xamirsimon massa holida bo'ladi. Akvarelda oq rang bo'lmaydi. Oq rang o'rnida bo'yoqlarning tiniq va yupqa qatlami tagidan ko'rinadigan yoki bo'yalmay qolgan qoqozning rangi xizmat qiladi.

Akvarel qadimgi Misr. Xitoy va Yaponiyada keyinchalik Angliyada va XVIII—XIX asrlarda Rossiyada keng qo'llanildi.

XIX asr akvarel asrining keng rivojlangan davri bo'ldi. Rassomlardan Delakrua, Dome, Gavarni va boshqalar, Rossiyada Bryulov, Repin, Vrubel va

boshqalar, O'zbekistonda Shevyakov, O'. Tansiqboev, G. Chiganov kabi rassomlar shuhrat qozongan davr edi. Sovet rassomlarida manzara portret, kitob suratlarida akvarel asosiy bo'yoq bo'lib qoldi. O'rta asrlarda Rossiyada va Qarbiy Evropada akvarel bilan diniy kitoblar bezatildi. Lekin ular akvarelga oq bo'yoq moddasi qo'shilgan holda ishlatilgan. Akvarel asosan ikki qismdan: shirach va bo'yoq kukunidan tashkil topgan. Boqlovchi moddalar olcha, gummi arabika, olxo'ri va boshqa daraxtlarning shirachidan tayyorlanadi. Ayniqsa olcha daraxti shirachidan tez eritma tayyorlash mumkin. Bu bo'yoqni tayyorlashda uni tez qotib qolmasligi, pishiqligi hamda suvda tez eruvchanlik xususiyatini oshirish uchun asal, dekstrin, glitserin qo'shiladi...

Qoqozlar — naqqoshlikda chizmachilik qoqozlari ishlatiladi. Oq chizma qoqozi va kalkadan foydalaniladi. Ayrim hollarda katta eskizlar tayyorlashda millimetrovka qoqozidan ham foydalaniladi. Chizma qoqozlari qalamda, tushda, akvarelda, guashda ishlash uchun mo'ljallangan bo'ladi. Qoqoz turlari ko'p, V va O markali oq chizma qoqozlar toboq va o'rama holida ishlab chiqiladi. V markali qoqozda eng muhim chizma va naqshlar ishlanadi. O markali qoqoz oddiy qoqoz bo'lib chizmachilik, naqqoshlik va boshqalarda keng qo'llaniladi. Odatda uning bir tomoni silliqroq bo'ladi, o'sha tomoniga naqsh ishlangani ma'qul. Naqsh chizishning davrlarida boshlanqich o'rganishda chizmachilik albomlaridan foydalaniladi.

Kalka — frantsuzcha kalgus so'zidan olingan bo'lib, chizmachilik, naqqoshlik va boshqalarda, nusxa ko'chirishda ishlatiladigan shaffof qoqoz yoki gazmol. Kalkalar asosan o'ramli qilib uzunligi 40 va 100 m, eni esa 630 hamda 840 mm qilib ishlab chiqariladi. Kalka 297X210, 297X²⁰ va boshqa formatlarda albom va alohida list holida ham bo'ladi. U qoqoz yoki batistdan tayyorlanadi.

Qoqozdan tayyorlangan kalka yuqori sifatli va past sifatli qilib tayyorlanadi. Past sifatli kalka ham shaffof bo'ladi. Batistdan (polotno) ishlangan kalkalar uzoq vaqt saqlanadigan hamda nusxalar ko'paytiriladigan muhim chizmalar ko'chirishda ishlatiladi. Chizmalar va naqshlarni qalamda kalkaga chiziladi, bunday kalka qalam kalkasi deb yuritiladi. Chizmadan tush hamda yoruqlik vositasida ko'plab

nusxa ko`chirish uchun maxsus modda shimdirilgan va kalandrlangan qoqoz yoki gazmol kalka kalandrlanmagan shaffof qoqoz esa qalamda nusxa ko`chirish uchun ishlatiladi.

Naqqoshlik, yoqoch o`ymakorlik, ganch o`ymakorlik va boshqa xalq amaliy san'ati turlarida axta (ulgi) tayyorlashda ishlatiladi. Hozirda ustalarning kalkadan tayyorlangan ming-minglab naqsh axtalari muzeylarda saqlanmoqda.

Qalam — naqshlarni sifatli chizish uchun qalamlarni to`qri tanlash va ulardan to`qri foydalanish katta ahamiyatga ega. Chizmalar va naqshlar chizish uchun «konstruktor» markali har xil qattiqlik va yumshoqlikdagi qalamlar juda qulay. Naqqoshchilikda asosan o`rtacha qattiqlikdagi «TM» qalamlar ishlatiladi. Qattiqlik darajasiga qarab qattiq, o`rtacha qattiq va yumshoq qalamlar bo`ladi. Ularni tegishli T, TM va M harflar bilan belgilanadi. Qattiq va yumshoq qalamlar oldiga sonli ko`rsatkichlar ham qo`yiladi. Chunonchi 2T, ZT, 4T yoki 2M, ZM, 4M va boshqalar T harfi oldidagi son qancha katta bo`lsa, u shuncha qattiq bo`ladi. M harfining oldiga qo`yilgan raqam qancha katta bo`lsa, u shunchalik yumshoq bo`ladi. Chet el qalamlarini N (qattiq) yumshoqini V markalar bilan belgilanadi. O`rtacha qattiqlikdagi harflar esa NV harflar bilan belgilanadi.

Qalam uchining grafit qismi 6—8 mm yoqoch qismi 15—25 mm atrofida qilib yo`niladi. Qalamlar konus holida yo`niladi. Ularni yo`nish uchun bir bo`lak karton, faner va yoqoch parchasiga shirach yordamida jilvir qoqoz yopishtiriladi. Qalamlar bilan naqsh chizishda bosmadan, qalamni yo`nilgan uchidan sal balandroqdagi uch barmoq bilan ushlanib chiziladi. Qalam bilan chizishda puxtalik, aniqlik hamda malaka bo`lishi kerak.

Politra — naqqoshchilikda oq rangdagi yassi lagancha yoki to`qri to`rtburchak plastmassa. Bunda oq qoqoz yoki kartondan ham foydalanish mumkin. Unda har xil bo`yoq turlari va shu rang bo`yicha koler tayyorlanadi.

**O`chirqich** — chizma chizishda qalamda, siyohda, tushda yoki boshqa chiziqlarni o`chirish uchun ishlatiladi. O`chirqich ikki xil: qalamda chizilgan chiziqlarni o`chirish uchun yumshoq oq yoki ko`k o`chirqich, siyoh, tush va boshqalarda chizilgan tasvirlarni o`chirish uchun tarkibida qumi bo`lgan qizil

o`chirqich bo`ladi. Qoqozda o`chirqich qancha ko`p ishlatilsa, qoqoz yuzasi ishdan chiqib bo`yoqni yaxshi olmaydigan bo`lib qoladi, bundan tashqari o`chirqichni qo`lda ko`p ushlab turish ham mumkin emas, chunki qo`l terlab u yoqlanib, kirlanib qoladi, natijada qoqozni xira qilib qo`yishi mumkin.

Stakan yoki banka — guash yoki akvarelga suv qo`shib aralashtirib turish va mo`yqalamlarni yuvib turish uchun ishlatiladi. Koler tayyorlashda esa maxsus kichkina foyans, plastinka, chinni va boshqa materiallardan qilingan idishchalar ishlatiladi.

Transporter—turli burchaklarni belgilash va o`lchash uchun ishlatiladi. Ayniqsa geometrik naqsh ishlashda ko`p ishlatiladi.

Sirkul (pargor) — o`simliksimon va geometrik naqshlar ishlashda aylanalar, yoylar, aylananing kesmalarini teng bo`lishda ishlatiladi.

Chizqich va uchburchaklar naqshlar chizishda juda kerakli qurol bo`lib, yoqochdan ishlatilganlaridan foydalangan ma`qul. Chunki plastmassa chizqich va uchburchaklar tez kir bo`lib chizmani iflos qiladi.

Nina — kalkani naqsh chiziqlari bo`ylab teshib chiqishda qo`l keladi. Pista ko`mir — xoka tayyorlashda va boshqalarda ishlatiladi. Yoqoch, saksovul yoki daraxt shoxlarini yoqib, cho`q bo`lganda o`chiriladi. O`chgan cho`qdan qop-qora pista ko`mir qoladi.

Jilvir qoqoz — (qum qoqoz) jilvir qoqoz asosan asboblarni charxlash, pichoqlarni tozalashda ishlatiladi. Jilvir qoqozning ko`pincha 000 markali qum qoqozi ko`p ishlatiladi. Jilvir qoqozlar davlat tomonidan standart asosida ishlab chiqariladi. Qalamlarni uchini silliqlashda, yoqochdan tayyorlanayotgan buyumga pardozi berishda ishlatiladi.

Naqqoshlikda kumush va tilla hallar ham ishlatiladi.

Tilla hal — sariq jezning kukuni bo`lib, uni bronza deb ataladi. Buyumlarni hallashda 18—20 nomerli mo`yqalamlar ishlatiladi.

Kumush hal — alyuminning kukuni bo`lib, oq yoki kumush hal deb ataladi.

Lok — yoqoch, faner yuziga ishlangan naqsh yoki biror tasvirni bo'yoqlari o'chib va surkalib ketmasligi uchun yoqli lok beriladi. Naqqoshlikda rangsiz yoqli damar 4 s, 6 s, 7 s markadagi smolali loklar ishlatiladi. Bu loklar paxta yoqiga o'xshash bo'lib, bo'yoq rangini deyarli o'zgartirmaydi. Buyumlar 18—22 darajali haroratda quruq changsiz joyda loklanada va quritiladi. Buyum birin-ketin quritib-quritib 2—3 marta loklanadi. Odatda lok ikki sutkada yaxshi quriydi. Agar yaxshilab quritib berilmasa, surkalgan lok yiqilib-yiqilib burishib qolishi mumkin. Eski lok ishlatilmaydi. Lokni ishlatishdan oldin dokadan o'tkazgan ma'qul.

Alifmoy — yunoncha moy degani. U o'simlik moylaridan va neftdan olinadi. Alifmoy havoda asta-sekin qotib keyin yupqa elastik parda hosil qiladi. Tabiiy va sintetik alifmoylar bo'ladi. Yoqoch buyumlarni gruntovka qilishda uning sirtiga suriladi hamda shpaklyovka va zamaska tayyorlashda ishlatiladi.

Qoqozga naqsh solishni o'rganish uchun dastavval to'qri, egri tik, aylana chiziqlarni chamalab bo'lishdan boshlanadi. O'simliksimon naqsh elementlari barglar, gullar, boqlam, tanob va boshqalarni katak daftarda maxsus to'rlar asosida qora qalamda chizish mashq qilinadi

Naqsh elementlarini ravon jonli chizishga o'rgatiladi. Chizish vaqtida simmetriya, assimetriya va boshqalarga e'tibor beriladi. Bu elementlarni quyidagi bosqichda chizgan ma'qul. Dastavval barg elementlari so'ngra gullar, undan keyin bargli gullar va nihoyatda tanob, band, shukufta, boqlam va boshqa elementlarni chizish mashq qilinadi.

Naqsh elementlarini yaxshilab o'rganib olgandan so'ng, oddiy naqsh namunalarini qora qalamda oddiydan murakkabga qarab 5—6 marta takrortakror chizishni albomda mashq qilinadi. Stilizatsiya, assimetriya, ritm va boshqalarga aloqida e'tibor beriladi. qalamni engil ravon bosmasdan chizish kerak. Bu naqshlarni yoddan yaxshilab bermalol chizishni o'rganib olgandan so'ng, bo'yoqlar va rangshunoslikdan ma'lumot olinadi. Naqshda asosan guash bo'yoqi ishlatiladi.

Bundan tashqari siqma tyubikli akvarel kraskani oq guashga qo'shib ham ishlatiladi. Guash bo'yoqida naqshga o'gishdan oldin qoqozda politrada ranglar kolyori tayyorlash mashq qilinadi. Guash judayam suyuq bo'yalsa unda naqsh

yuzasi tekis bo'yalmaydi. Agarda guash haddan tashqari quyuqva qalin berilsa unda bo'yoq mo'rt bo'lib ko'chib ketadi.

Kolyor tayyorlashda chinni yoki plastmassa idishchalardan foydalaniladi. har bir rangli guashga aloqida-alloqida yoqoch kurakchalar ishlatiladi. Naqshlarni bo'yashda elementlarning aniqligiga, simmetrikligiga e'tibor berish; rang gammasiga, koloritiga, ranglarni boqliqligiga va tiniqligiga; ko'zga yaqqol tashlanadigan doqlarning bo'lmasligi, naqshlarni toza va ozoda chiqishi, naqsh kompozitsiyasining ta'sirchanligiga bo'yoq qavatlarining tekis chiqishiga, guash texnologiyasiga qat'iy rioya qilish kerak.

Naqsh biror gammada masalan, yashil, zangori, jigar rang, pushti, limon rang yoki boshqalarda bo'yaladigan bo'lsa, qaysi rang asosiy kolorit rang bo'lsa shu hukmron rangga bo'ysundiriladi. Naqshdagi qolgan har qanday ranglar shu rang gammasini buzmasligi kerak

UMUMIY XULOSA

Tasviriy san`atda, borliqni aks ettirish o`z-o`zidan paydo bo`lmadi. U inson paydo bo`lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O`rta asrga kelib o`zining eng yuqori cho`qqisini namoyon qildi. Evropa bu borada dynuo svilizatsiyasiga o`ziga xos o`ringa ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san`at arboblarni etishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Men o`zimning malakaviy bitiruv ishimda “To`garaklarida naqshlar bajarish ketma-ketligi” haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim. Shu bilan birga O`zbekistonimizning olamda tengi yo`q tabiati, ser jilo quyoshli kunlari, olamda tengsiz naqshinkor binolar-u, baland minoralari bilan mashhurdir. Bu mavzuimda, kelajak avlodlarimiz bo`lgan bolalar ongini, tafakkurini boyitish, tasviriy san`t shaydolarini shakllantirishdek, byuk maqsad sari intiladigan, zamonamiz tayanchlarini, yetuk shaxslarni yetishtirib berishdek mas`u- liyatli vazifaga o`z hissamni qo`shganimdan mamnunman. Ko`nglida tasviriy san`- atga bo`lgan ishtiyoqi baland kishilardan, hech qachon vatan xoinlari chiqmaydi. Bunday kishilar, vatan kelajagi uchun uning gullab yashnashi uchun, qo`llaridan kelgan barcha ishlarni qilishga, tayyordirlar. O`z bilim va zakovatlarini, namoyon qila olishlariga iymonimiz komildir. Men o`z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'qrisida"gi qonuni. -T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Q O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so'zlagan nutqi. - T.:Sharq, 1997.- 53b.
- 6 Pavlov I. P. Psixologiya vo'sshego razuma.-M.: Prosvehenie, 4-e izd., 1987.-434 s.
- 7 Lebedev K. A. Aporii Zennona v razdumyax filosofov. QQ Filosofiya Vostoka i Zapada.- Sb.nauch. trudov – M: MGU.- S.117.
- 8 N.U.Abdullayev."San`at tarixi".-Toshkent,"O`qituvchi".1986.
- 9 Rubinshteyn L. S. Psixologiya lichnosti.-M.: Prosveshenie,1991-237 s.
- 10 Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.- 17b.
- 11 Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyot va nazariyaQQ Ma'rifat.-2004,- 21 fevral.
- 12 Y.V.Shoroxov.Osnovi kompozitsii-Moskva."Prosveshenie".1976.
- 13 S.Abdirasulov,N.Tolipov,N.Oripova. Rang tasvir Toshkent- "O'zbekiston"-2006
- 14 Botir Boymetov Qalam tasvir "MUSIQA" nashriyot TOSHKENT- 2006
- 15 B.Z. Azimova "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi"Toshkent – O`qituvchi-1984.
- 16 B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli luqati.Toshkent -1994.
- 17 S. Abdirasulov Tasviriy san`at atamalari. Toshkent- 2003
- 18 G.V.Beda. JIVOPIS. Moskva -1989.

- 19 L.O.Barsh. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.
- 20 B.S.Kuzin. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.
- 21 A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
- 22 X.Egamov.Bo`yoqlar bilan ishlash. –Toshkent . “O`qituvchi”1981.
- 23 R.Hasanov.”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi”Toshkent.-
“Fan”.2004.
- 24 A.Y. Terent`yev.Izobrajenie jivotnix I ptits sretstvami risunka I jivipisi.
Moskva.-1980.
- 25 N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-
“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
- 26 M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
- 27 N.M.Moleva.Vidayusheysiya russkiy xudojniki – pedagogi.
Moskva ,1991.
- 28 N.Rastovtsev. Akademicheskij risunok.Moskva,1985.
- 29 V.S.Kuziin. voprosi izobrazitel`nogo tvorchestvo.-Moskva.1971.

Navoiy davlat pedagogika instituti
pedagogika fakultetining bitiruvchi kurs
talabasi

Umirov Sunnatullo Suvonqulovich

“To`garaklarida naqshlar bajarish ketma-
ketligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Talaba Umirov Sunnatullo Suvonqulovich “To`garaklarida naqshlar bajarish ketma-ketligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – o`quvchilar tafakkurini o`stirish muammosining yechimini topishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, malakaviy bitiruv ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Talaba malakaviy bitiruv ishida naqshlar bajarish haqida umumiy tushuncha berishni, amaliy san`at usullarini bayon etishni va naqqoshlikka doir bir nechta ishlardan namunalar keltirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 55 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, maktab o`quvchilarining naqqoshlik haqidagi tushunchasini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida amaliy san`at o`quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi. Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida amaliy san`at darslarida naqqoshlik fanini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e`tiborni qaratgan. Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil-pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, naqqoshlik texnikalaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o'rganish shundan dalolat beradiki, dissertatsiyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta o'ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qo'lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o'z yechimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Umirov Sunnatullo Suvonqulovich tomonidan ayrim kamchiliklar ham uchraydi, jumladan:

1. Malakaviy bitiruv ishi matnida imloviy xatolar uchraydi. Masalan, 17 19-betlar.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida naqqoshlik metodlari to'qrisida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq shakllantirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bildirilgan fikrlar, taklif va mulohazalar dissertatsiya ishining ilmiy qimmatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi talablariga to'liq mos keladi. Uning muallifi- Umirov Sunnatullo Suvonqulovich –“tasviriyy san'at va muhandislik grafikasi” ta'lim yo'nalishi ixtisosligi bo'yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Ilmiy rahbar:

P.f.n. dotsent ***O.Qodirov***

To'garaklarida naqshlar bajarish ketma-
ketligi " mavzusidagi bitiruv malakaviy
ishiga

Talaba Umirov Sunnatullo Suvonqulovich “To`garaklarida naqshlar bajarish ketma-ketligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi o`rta maktabda amaliy san`at fanining rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlarini e`tiborga olgan holda yozilganligi bilan bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo`lib borishi bilan belgilanadi.

Talaba malakaviy bitiruv ishida naqqoshlik haqida umumiy tushuncha berishni, naqqoshlik usullarini bayon etishni va naqqoshlikni texnika va usullariga doir bir nechta ishlardan namunalar keltirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yigan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 55 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, maktab o'quvchilarining naqqoshlik fanini yaxshi o'zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida tasviriya san'at o'quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi, hamda umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarida amaliy san'at darslarida naqqoshlik fanini o'rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e'tiborni qaratgan.

Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil- pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, amaliy san'at metodlaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o`rganish shundan dalolat beradiki, dissertatsiyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta o`ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijro-

si oqibatida qo`lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o`z yechimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Umirov Sunnatullo Suvonqulovich tomonidan ayrim kamchiliklarga ham yo`l qo`yilgan, jumladan:

1. Nazarimizda, amaliy san`at o`qitishning birnecha dars konspektini 2-bobida batafsil keltirib o`tilsa, maqsadga muvofiq bo`lardi.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida ayrim texnik xatolar uchraydi;

Umuman, yuqorida bildirilgan noaniqliklar tadqiqotchi Umirov Sunnatullo Suvonqulovich o`tkazgan tadqiqotning ilmiy qimmatiga putur yetkazmaydi, aksincha tadqiqot haqqoniy bajarilganligidan dalolat beradi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi talablariga to`liq mos keladi. Uning muallifi- Umirov Sunnatullo Suvonqulovich – “tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” yo`nalishi ixtisosligi bo`yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

Navoiy pedagogika kolleji o`qituvchisi:_____Sh.Bobonazarov

HIMOYA KUNI

MBIni baholash mezon

Mavzuning aktualligi	Ishning mustaqil bajarilish darajasi	Amaliy ahamiyati	Yangi adabiyotlardan (Internet) foydalanish darajasi
12	32	16	10

Rasmiylashtirish sifati	MBIning himoyasi	Jami	%
10	20	100	%

DAK
raisi:
DAK
a'zolari:
